



Description and characteristics of arterial hypertension in a population of different ages, in women and men, as well as aboriginal and migrant groups (based on the results of the 31-year prospective monitoring)

Dilmurod KALANDAROV¹, Nematjon MAMASALIEV²,
Zokhidjon MAMASALIEV³, Mirmakhmud MIRSAYDULLAEV⁴,
Shakhnoza MAMASOLIEVA⁵

Andijan State Medical Institute
"Kardio-Mir" Diagnostic and Consulting Center

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025
Received in revised form
10 July 2025
Accepted 25 July 2025
Available online
15 August 2025

Keywords:

prehypertensive state,
arterial hypertension,
prevention of cardiovascular
diseases,
self-monitoring of blood
pressure,
hypertension,
prevention,
scientific basis,
screening,
region.

ABSTRACT

Arterial hypertension, hypertensive disease, hypertensive state, hypertensive crisis and the hypertensive continuum associated with them are one of the important medical, social and economic problems of the healthcare system, "...all groups of the population around the world are suffering from this pandemic...".

The direct or indirect (through their risk factors) relationship between pre-hypertensive state / arterial hypertension and cardiovascular system remodeling has been proven in clinical and experimental studies.

The provision of high-quality cardiological medical services to the population in Uzbekistan has radically improved, modern methods of effective treatment of cardiovascular diseases, including pre-hypertensive state, are being implemented. However, despite the specific measures taken in healthcare, there are still urgent and problematic issues that are awaiting their solution in the regions, including in the field of preventive cardiology / hypertension.

¹ Associate Professor, Department of Internal Medicine, Cardiology and Emergency Medical Care, Faculty of Advanced Training and Retraining of Physicians, Andijan State Medical Institute. E-mail: dilmurad_1973@mail.ru

² Doctor of Medical Sciences, Professor, Head of the Department of Internal Medicine, Cardiology and Emergency Medical Care, Faculty of Advanced Training and Retraining of Physicians, Andijan State Medical Institute. E-mail: prof.mamasoliev.ns@mail.ru

³ Associate Professor, Department of Ophthalmology, Andijan State Medical Institute. E-mail: zohidmamasoliev177@mail.com

⁴ Director of the "Kardio-Mir" Diagnostic and Consulting Center affiliated with "Hilol Med Center" LLC. E-mail: m.mirsaydullaev@mail.uz

⁵ Assistant, Department of Otorhinolaryngology, Andijan State Medical Institute. E-mail: shaxnozaxonmamasoliyeva@gmail.com

At the international level, targeted scientific work is being consistently carried out to study the origin and epidemiology of arterial hypertension, its regional formation in more in-depth prospective studies in different population groups, as well as to identify / distinguish the role of risk factors in the mechanism of its development. Such studies cover important medical, preventive and pharmacotherapeutic areas, such as, first of all, a broad analysis of the causes of the disease in hypertensive cases, proving the preventive and diagnostic significance of many risk factors in its early detection, or assessing the relationship between general and regional risk factors and epidemiological indicators of hypertensive cases.

At the same time, research on the introduction of new regionally significant and effective preventive diagnostic methods based on general epidemiological patterns and risk factors, and the development of individual (regional) approaches to early detection of hypertensive cases and their treatment / control are of great importance.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3663-vol4-iss1-pp112-121>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ayollar va erkaklar hamda aborijen va kelgindi guruhlarda arterial bosim ko'tarilishining tavsifi va xususiyatlari (31-yillik prospektiv monitoring xulosalari bo'yicha)

Kalit so'zlar:

gipertenziya oldi holati,
arterial gipertenziya,
yurak-qon tomir
kasalliklarining oldini olish,
qon bosimini o'z-o'zini
nazorat qilish,
gipertoniya,
profilaktika,
ilmiy asos,
skrining,
hudud.

ANNOTATSIYA

Arterial gipertenziya, gipertoniya kasalligi, gipertoniya holati, gipertonik kriz va ular bilan bog'liq gipertonik kontinuum kabilar sog'liqni saqlash tizimini muhim tibbiy-ijtimoiy va iqtisodiy muammolaridan biri bo'lib, dunyo bo'ylab aholining barcha guruhlari ushbu pandemiya bilan xastalanmoqda.

Gipertenziya oldi holati / arterial gipertoniya va yurak-qon tomir tizimining remodellanishi orasida bevosita yoki bilvosita (ularning xatar omillari orqali) o'zaro bog'liqlik klinik va eksperimental tadqiqotlarda isbotlangan.

O'zbekistonda aholiga sifatli kardiologik tibbiy xizmat ko'rsatish tubdan yaxshilandi, yurak-qon tomir kasalliklarni va gipertenziya oldi holatini samarali davolashning zamonaviy usullari tatbiq etilmoqda. Ammo sog'liqni saqlashda amalga oshirilgan aniq chora-tadbirlarga qaramasdan bugungi kunda, jumladan, profilaktik kardiologiya / gipertenziologiya sohasida o'z yechimini hududlar ko'lamida kutayotgan dolzarb va muammoli masalalar mavjud.

Xalqaro miqyosida arterial gipertoniyaning kelib chiqishi va epidemiologiyasi, mintaqaviy shakllanishini turli aholi guruhlari chuqurroq prospektiv tadqiqotlarda o'rganish,

shuningdek, uning rivojlanish mexanizmida xatar omillarning tutgan o'rnini aniqlashga / ajratishga qaratilgan maqsadli ilmiy ishlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Bunday tadqiqotlar, avvalo, gipertenziv holatlarda kasallikning kelib chiqish omillarini keng tahlil qilish, uning erta bosqichida aniqlanishida ko'plab xatar omillarini preventiv-tashxisiy ahamiyatini isbotlab berish yoki umumiy va hududiy xatar omillar va gipertenziv holatlarning epidemiologik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholash kabi muhim tibbiy profilaktik va farmakoterapevtik yo'nalishlarni qamrab oladi.

Shu bilan birga, umumiy epidemiologik qonuniyatlar va xatar omillari asosida yangi mintaqaviy ahamiyatli va samarali preventiv tashxis usullarini joriy etish, gipertenziv holatlarni erta aniqlash va uning davolash / nazorat qilishda individual (hududiy) yondashuvlarni o'zgartirib rivojlantirish borasidagi izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Характеристика артериальной гипертензии у населения разного возраста, у женщин и мужчин, а также у коренных и мигрантовых групп (по результатам 31-летнего проспективного наблюдения)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

предгипертензивное состояние, артериальная гипертензия, профилактика сердечно-сосудистых заболеваний, самоконтроль артериального давления, артериальная гипертензия, профилактика, научная основа, скрининг, регион.

Артериальная гипертензия, гипертоническая болезнь, гипертоническое состояние, гипертонический криз и связанный с ними гипертонический континуум являются одной из важнейших медико-социальных и экономических проблем здравоохранения: «...от этой пандемии страдают все группы населения во всем мире...».

Прямая или опосредованная (через факторы риска) связь между предгипертензивным состоянием / артериальной гипертензией и ремоделированием сердечно-сосудистой системы доказана клиническими и экспериментальными исследованиями.

В Узбекистане значительно улучшилось обеспечение населения высококачественной кардиологической помощью, внедряются современные методы эффективного лечения сердечно-сосудистых заболеваний, включая предгипертензивное состояние. Однако, несмотря на принимаемые меры в здравоохранении, в регионах сохраняются актуальные проблемы, требующие решения, в том числе в области профилактической кардиологии и гипертонии.

На международном уровне проводится целенаправленная научная работа по изучению генеза и эпидемиологии артериальной гипертонии, её регионального формирования в более глубоких проспективных исследованиях различных групп населения, а также по выявлению и дифференциации

роли факторов риска в механизме её развития. Подобные исследования охватывают важные медицинские, профилактические и фармакотерапевтические направления: широкий анализ причин заболевания у пациентов с артериальной гипертонией, доказательство профилактической и диагностической значимости факторов риска при раннем выявлении болезни, а также оценку взаимосвязи общих и региональных факторов риска с эпидемиологическими показателями.

Особое значение имеют исследования, направленные на внедрение новых регионально значимых и эффективных методов превентивной диагностики, основанных на общих эпидемиологических закономерностях и факторах риска, а также разработку индивидуализированных (региональных) подходов к раннему выявлению больных артериальной гипертонией и их лечению / контролю.

KIRISH

XX asr oxirlaridan boshlab yurak-qon tomir kasalliklari sababli yuzaga kelayotgan o'lim sur'atining oshishi va keskinlashib, o'zgarishlar bilan ifodalanganligi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlanib ko'rsatilgan.

O'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib, G.Y. Maslennikova, R.G. Oganov (2018), Y.V. Akimova va hammualliflar (2006), M.M. Kayumova va hammual. (2023), N.V. Pogosova va hammual. (2018), A.M. Akimov (2023) kabi tadqiqotchilar isbotli tasdiqlashadiki, bunday tendensiyalar ko'pchilik mamlakatlarda ro'y bergan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar va ruhiy ijtimoiy, omillarga bog'liq holda kuzatilgan, aksariyat qiyosan iqtisodiy faol yoshda qayd etilgan [8; 4-9-b., 9; 6-9-b., 6; 33-34-b., 7; 49-52-b., 10; 47-56-b., 1; 104-110-b.].

A.M. Akimov (2023) Arktika hududida xatar omillari orasida mehnat turini alohida ta'kidlab, uning aholi sog'lig'ini saqlashda ahamiyatini ko'rsatib tasdiqlab bergan. Ushbu hududda mehnat intensivligini yuqoriligi, ishni nisbatan davomli bo'lishi, dam olish kunlarini kamligi minimal darajada ijtimoiy-maishiy va ta'minlanganligi kabilarni muallif xatar omili sifatida ko'rsatib o'tgan [1; 104-110-b.].

Shuning uchun mehnat xarakteri dinamikasini va uni ekspeditsiyali vositalar rejimida, alohida jo'g'rofiy-ekologik mintaqalarda, masalan, Arktika sharoitida yurak-qon tomir kasalliklarini profilaktikasini kompleks dasturini ishlab chiqish uchun epidemiologik tekshiruvlarni o'tkizish va/yoki davom ettirish darkorligi boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham tavsiya qilinadi [5; 19-24-b., 2; 239-240-b., 3; 34-35-b., 4; 96-99-b., 12; 272-280-b., 13; 1547-57-b., 15; 1429-1440-b.].

Ushbu fikr bildirishlarda ilmiy mantiq va istiqbolli mavzu mavjud, deb hisoblaymiz.

Yangi asrning boshigacha, masalan, ilmiy manbalarda Shimoliy aholi, mahalliy populyatsiya, qandli diabet bilan kasallanishmaydi deb bildirilgan fikr "hukm surgan".

JSSST bergan ma'lumotlar bo'yicha so'nggi yillar davomida xalqaro migratsiya turg'un o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib bormoqda [14].

Demak, ushbu shakllanib ulgurgan migrant aholi populyatsiyasida (MAP) skrining profilaktika dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirib borish dolzarblashgan masala hisoblanadi yoki kelgusida yanada bu mavzu dolzarblashadi. Mavjud bajarilgan tadqiqotlar shunday xulosa berishga olib keladi yoki undaydi.

Rossiya davlat statistika federal xizmati (2025) va A.S.Andreeva, I.S.Ivanova, Y.A.Varshaver (2024) e'lon qilgan ma'lumotlarga ko'ra, Rossiya federatsiyasida migratsiyalanish oqimi har yili o'rtacha 0,5 mln kishini tashkil qiladi va aksariyat holatlarda keluvchilar hamdo'stlik davlatlardan bo'lgan [11; 8; 54-72-b.].

Tadqiqot maqsadi – ilmiy xususiyatlarni hisobga olib, O'zbekiston sharoitida 31-yillik skrining bo'yicha gipertenziv holatlarni innovatsion profilaktikasining hududiy ilmiy asoslarini ishlab chiqish va davolash nazorat qilish tadbirlari takomillashtirilgan yangi texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilishdan iborat.

MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqotning obyekti sifatida Andijon viloyatida 18–89 yoshdagi uyushmagan aholidan tasodifiy sonlar jadvali bo'yicha 10 foizli tanlov usulida ajratib olingan va shakllantirilgan, AG monitoringiga 1989–2020-yillar davomida jalb qilingan 3001 nafar (1421 nafar erkaklar va 1580 nafar ayollar) aholi populyatsiyasi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida bemorlar venoz qoni va uning zardobi biokimyoviy tahlillar uchun olingan; AB va GH ni tashxislash va ularga komorbid kasalliklarning xatar omillarini tahlil qilish xalqaro mezonlari, hududiy profilaktikani ilmiy asoslashga xizmat qiladigan to'liq statistik modellashtirish ko'rsatkichlar olingan.

Tadqiqotning usullari. Epidemiologik, umumklinik, asbobiy (yurak exokardiografiyasi, EKG, UTT, antropometrik o'lchovlar, tonometriya) biokimyoviy, farmakoepidemiologik, farmakoiqtisodiy, farmakonazorat hamda statistik usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR

Tadqiqotda o'smirlik yoshidagi (O'SYo, 18-22 yosh), navqiron yoshdagi (NYo, 23-24 yosh), o'rta yoshdagi (O'Yo, 45-59 yosh), keksa yoshdagi (KYo, 60-74 yosh) va qariya yoshdagi (QYo, 75-89 yosh) Andijon viloyatining uyushmagan ayollari va erkaklari populyatsiyasida arterial gipertenziyaning tarqalishini 1989–2020-yillardagi xususiyatlari va 31 yillik o'zgarishlarining ifodalanishi o'rganildi (1-jadval va 1-rasmda olingan natijalarni raqamli tahlillari keltirilgan).

1-jadval


Turli yoshdagi aholi populyatsiyasida arterial gipertenziyaning tarqalishining 1989–2020-yillardagi dinamikasi

Skrining yili, aholi soni	AG tarqalishi										RR	95% II		χ^2
	O'SYo		NYo		O'rYo		KYo		QYo			max	min	
	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%				
I sk (n=1863)	4 2	0.5 0,2	177 204	20.1 20,8	237 173	26.9 17,6	372 487	42.2 49,6	92 115	10.4 11,7	1,12	1,19	1,05	11,3
P ₁ P ₂	≥0.05 ≥0.05		≥0.05 ≥0.05		≤0.05 ≤0.05		≥0.05 ≥0.05		≤0.05 ≤0.05					
II sk (n=1005)	3 2	0.6 0,4	88 83	17.9 16,1	123 93	25.1 18,1	220 255	44.8 49,6	57 81	11.6 15,8	1,05	1,18	0,93	0,52
UmP (n=2868)	7 4	0.5 0,3	265 287	19.3 19,2	360 266	26.2 17,8	592 742	43.1 49,6	149 196	7.1 25,4	1,09	1,17	1,01	1,09

Izoh: O'SYo – 18-22 yosh (o'smirlik yoshi), NYo – 23-44 yosh (navqironlik yoshi), O'rYo – 45-59 yosh (o'rta yosh), KYo – 60-74 yosh (keksa yosh), QYo – 75-89 yosh (qariyalik yoshi).

Sur'atda erkaklar, maxrajda ayollar, R₁ – erkaklar orasidagi tafovutlanish darajasi, R₂ – ayollar orasidagi tafovutlanish darajasi.

Umumiy populyatsiyada (I- va II-skrining aholisi), erkak va ayollarda, arterial gipertenziyani tarqalish chastotasi yoshga bog'liq bo'lib tafovut bilan aniqlanadi: o'smirlarda – 0,5% va 0,3% dan ($P<0,05$), o'spirin-navqironlarda – 19,3% va 19,2% dan ($P>0,05$), o'rta yoshdagilarda – 26,2% va 17,8% dan ($P<0,05$), keksalarda – 43,1% va 49,6% dan ($P>0,05$), qariyalarda – 7,1% va 25,4% dan ($P<0,05$). AG – 59 yoshgacha erkaklarda va undan keyingi yoshlarda ayollarda sezilarli farq bilan yuqori chastotalar bilan tasdiqlanadi. Yoshga bog'liq bo'lib AG ni aniqlanish chastotasi erkaklarda – 2,2 barobarga va ayollarda – 2,5 barobarga yetib ortadi [$RR=1,09$; $II=1,17-1,01$; $\chi^2=1,09$; $P<0,01$].



1-rasm. Turli yoshdagi erkak va ayollarda arterial gipertenziyani epidemiologik tavsifi va 31-yillik o'zgarishlarini ifodalanishi

Turli yoshli aholida AG ni aniqlanish chastotasi va 31-yillik o'zgarishlari, dinamikasi, erkak va ayollarda (sur'atda erkaklar va maxrajda ayollar ko'rsatilgan), quyidagicha ifodalanishlar bilan tasdiqlanadi: O'SYo da $\frac{0,5\%}{0,2\%}$ va $\frac{0,6\%}{0,4\%}$ dan (kamayish tendensiyasini ko'rsatadi; $P_1>0,05$, $P_2>0,05$); NYo da $\frac{20,1\%}{20,8\%}$ va $\frac{17,9\%}{16,1\%}$ dan (kamayish bilan; $P_1>0,05$, $P_2>0,05$); O'rYo da $\frac{26,9\%}{17,6\%}$ va $\frac{25,1\%}{18,1\%}$ dan (erkaklarda pasayish va ayollarda pasayish tendensiyasi bilan; $P_1<0,05$, $P_2<0,05$); KYo da $\frac{42,2\%}{49,6\%}$ va $\frac{44,8\%}{49,6\%}$ dan (ko'payish tendensiyasi bilan; $P_1>0,05$, $P_2>0,05$); QYo da $\frac{10,4\%}{11,7\%}$ va $\frac{11,6\%}{15,8\%}$ (ko'payish bilan; $P_1<0,05$, $P_2<0,05$).

I skrining bo'yicha AG ni aniqlanish chastotasi yoshga bog'liq bo'lib – 42,2% gacha (erkaklarda) va 49,6% gacha (ayollarda) ortadi [$RR=1,12$; $II=1,19-1,05$; $\chi^2=11,3$; $P_1<0,01$; $P_2<0,01$].

Turli yoshdagi aborigen (jadvaldagi sur'atda ko'rsatilgan) va kelgindi (jadvaldagi maxrajda ko'rsatilgan) qishloq aholisi populyatsiyasida AG ning tarqalishini 1989–2020-yillardagi dinamikasi va 31-yillik ifodalanishlari 2-jadval va 2-rasmda keltirilgan.

2-jadval

Turli yoshdagi aborigen va kelgindi aholi populyatsiyasida arterial gipertenziyaning tarqalishining 1989–2020-yillardagi dinamikasi


Skrining yili, aholi soni	AG tarqalishi										RR	95% II		χ^2
	O'SYo		NYo		O'rYo		KYo		QYo					
	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%				
I sk (n=1863)	<u>5</u> 1	<u>0.3</u> 0,5	<u>345</u> 36	<u>20.6</u> 19,1	<u>373</u> 37	<u>22.3</u> 19,7	<u>773</u> 86	<u>46.1</u> 45,7	<u>179</u> 28	<u>10.7</u> 14,9	0,94	1,34	0,66	0,12
P ₁ P ₂	<u>>0.05</u> >0.05		<u>>0.05</u> >0.05		<u>>0.05</u> >0.05		<u>>0.05</u> >0.05		<u>>0.05</u> >0.05					
II sk (n=1005)	<u>4</u> 1	<u>0.4</u> 1,1	<u>155</u> 16	<u>17.0</u> 17,0	<u>197</u> 19	<u>21.6</u> 20,2	<u>429</u> 46	<u>47.1</u> 48,9	<u>126</u> 12	<u>13.8</u> 12,8	1,03	1,56	0,68	1,01
UmP (n=2868)	<u>9</u> 2	<u>0.3</u> 0.7	<u>500</u> 52	<u>19.3</u> 18,4	<u>570</u> 56	<u>22.0</u> 19.9	<u>1202</u> 132	<u>46.5</u> 46.8	<u>305</u> 40	<u>11.8</u> 14,2	1,02	1,30	0,80	0,02

Izoh: Sur'atda – aborigen aholi, maxrajda – kelgindi aholi.

Ma'lum bo'ldiki, umumiy populyatsiyada AG ni aniqlanish chastotasi turli yoshli aholida quyidagicha kuzatiladi: O'SYo da - $\frac{0,3\%}{0,7\%}$ dan (kelgindilarda sezilarli yuqori bo'lish bilan; $P<0,05$); NYo da - $\frac{19,3\%}{18,4\%}$ dan (aborigenlarda sezilarsiz yuqori bo'lish bilan; $P>0,05$); O'rYo da - $\frac{22,0\%}{19,9\%}$ dan (aborigenlarda yuqori bo'lish bilan; $P>0,05$); KYo da - $\frac{46,5\%}{46,8\%}$ dan (kelgindi aholida sezilarsiz yuqori bo'lish bilan; $P>0,05$) va QYo da - $\frac{11,8\%}{14,2\%}$ dan (kelgindi aholida yuqori bo'lish bilan; $P>0,05$).

Aborigen umumiy populyatsiyada yoshga bog'liq arterial gipertenziyani o'sish chastotasi – 46,2% ni [RR=1,02; 95% II=1,30 – 0,80; $\chi^2=0,02$; $P<0,01$] va kelgindi aholida bo'lsa – 46,1% ni tashkil etib tasdiqlanadi ($P<0,01$).

I va II- skrining bo'yicha aborigen va kelgindi aholida AG ning aniqlanish chastotalari quyidagicha tasdiqlanadi: O'SYo da - $\frac{0,3\%}{0,5\%}$ ($P<0,05$) va $\frac{0,4\%}{1,1\%}$ dan ($P<0,01$; o'sish sur'atini har ikki guruhda 31-yillik dinamikasini tavsiflab); NYo da - $\frac{20,6\%}{19,1\%}$ ($P<0,05$) va $\frac{17,0\%}{17,0\%}$ dan (bir xil chastotani tasdiqlab); O'rYo da - $\frac{22,3\%}{19,7\%}$ ($P>0,05$) va $\frac{21,6\%}{20,2\%}$ dan ($P>0,05$; o'sish chastotasini kelgindi aholida va kamayish tendensiyasini aborigenlarda ko'rsatish bilan); KYo da - $\frac{46,1\%}{45,7\%}$ ($P>0,05$) va $\frac{47,1\%}{48,9\%}$ dan ($P>0,05$; o'sish bilan); QYo da - $\frac{10,7\%}{14,9\%}$ va $\frac{13,8\%}{12,8\%}$ dan ($P_1>0,05$; $P_2>0,05$; aborigenlarda o'sish va kelgindi aholida kamayish bilan).



2-rasm. Turli yoshdagi aborigen va kelgindi aholida arterial gipertenziyani epidemiologik tavsifi va 31-yillik o'zgarishlarini ifodalanishi


I skriningda aborigenlarda va kelgindilarda yoshga bog'liq o'sish tendensiyasi – 46,1% ni va 45,7% ni tashkil qiladi ($P_1 < 0,01$; $P_2 < 0,05$) [$RR=0,94$; 95% $II=1,34-0,66$; $\chi^2=0,12$]; II- skrining bo'yicha esa muvofiq bo'lib aborigen va kelgindi aholida AG ni o'sishi, yoshga bog'liq holda, 46,5% va 47,8%ni, 31-yillik dinamikasida tashkil qiladi [$RR=1,03$; 95% $II=1,56-0,68$; $\chi^2=1,01$].

Kelgusi 3-jadval va 3-rasmda navqiron (23–44) yoshdagi erkak (sur'atda) va ayollar (maxrajda) populyatsiyasida arterial gipertenziya fenotiplarini tarqalishi va 1989–2020-yillardagi 31-yillik dinamikasini ifodalanishi ko'rsatilgan. O'smir yoshidagilar soni oz bo'lganligi uchun ular bunday tahlilga kiritilmadi. Ular kelgusi bobda bayon qilingan.

3-jadval

Navqiron (23–44) yoshdagi erkak va ayollar populyatsiyasida arterial gipertenziya fenotiplarini tarqalishi va 1989–2020-yillardagi dinamikasi

Skrining yili, AG bilan aholi soni	AG fenotiplari, 23-44 yoshlarda																RR	95%		χ ²
	Tr AG		L AG		Yos AG		Ib AG		R AG		N AG		Nt AG		Ya AG			II		
	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%		max	min	
I sk	1	1,8	25	43,9	0	0,0	12	21,1	0	0,0	0	0,0	19	33,3	0	0,0	0,4	0,63	0,31	15,2
(AGn=165)	0	0,0	15	34,9	0	0,0	13	30,2	0	0,0	1	2,3	14	32,6	0	0,0				
P	NaN		>0,05		NaN		>0,05		NaN		NaN		>0,05		NaN					
II sk	0	0,0	14	48,3	0	0,0	5	17,2	0	0,0	0	0,0	9	31,0	1	3,4	2,1	2,63	1,61	21,8
(AGn=371)	0	0,0	2	16,7	0	0,0	5	41,7	0	0,0	0	0,0	5	41,7	0	0,0				
UmP	1	1,2	39	45,3	0	0,0	17	19,8	0	0,0	0	0,0	28	32,6	1	1,2	0,2	0,31	0,15	45,3
(AGn=536)	0	0,0	17	30,9	0	0,0	18	32,7	0	0,0	1	1,8	19	34,5	0	0,0				



3-rasm. Navqiron yoshdagi aholida arterial gipertenziyaning fenotiplarini epidemiologik tavsifi va 31-yillik dinamikasini ifodalanishi

XULOSA

31 yillik prospektiv epidemiologik monitoring gipertenziv holatlarning xatar omillarini tarqalishi chastotasining aniqlanishi va o'zgarishlari xususiyatlarini quyidagicha tasdiqlab ko'rsatadi: ortiqcha tana-vazni – 44,3% (o'sish bilan), gipodinamiya – 37,6% (o'sish bilan), irsiy moyillik – 4,7% (o'sish bilan), chekish – 25,6% (o'sish bilan), alkogol suiiste'moli – 6,2% (o'sish bilan), alimentar omil – 55,2% (o'sish bilan), ortiqcha tuz iste'moli – 11,4% (kamayish bilan), dislipidemiya – 48,8% (kamayish bilan), stress – 63,7% (o'sish bilan), tungi apnoe va xurrak otish – 44,8% (kamayish bilan), va nomaqbul ijtimoiy-iqtisodiy holatlar – 2,3% (kamayish bilan).

Barcha xatar ommilari sezilarli yuqori chastota bilan erkaklarda, aborigen aholida tasdiqlanadi va dinamikasida saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Акимов А.М. Некоторые факторы хронического социального стресса у мужчин, занятых экспедиционно-вахтовой формой труда на арктических территориях Тюменского региона (пилотное исследование). Сибирский научный медицинский журнал. 2023;43(3):104-112.

2. Акимов А.М. Физическая активность и характер труда в популяции мужчин трудоспособного возраста. Омский научный вестник. 2015; 2(136):238-240.

3. Акимов А.М., Гакова Е.И., Каюмова М.М. и др. Табакокурение и его ассоциации с отношением к здоровью мужчин 25–54 лет, работающих экспедиционно-вахтовым методом в Арктическом регионе Западной Сибири. Профилактическая медицина. 2024;27(4):32-37.

4. Акимов А.М., Каюмова М.М., Гакова Е.И. и др. Отношение к своему здоровью в открытой популяции среднеурбанизированного города Западной Сибири, ассоциации с распространенностью ИБС: гендерные особенности. Сибирский научный медицинский журнал. 2021;41(4):95-102.

5. Акимова Е.В., Гафаров В.В., Каюмова А.Р. Физическая активность и отношение к профилактике среди мужчин, занятых мобильным трудом в Арктической зоне России. Международный журнал сердца и сосудистых заболеваний. 2024;12(43):19-26.

6. Акимова Е.В., Кузнецов В.А., Гафаров В.В. Риск сердечно-сосудистой смерти в различных социальных группах открытой популяции Тюмени. Профилактика заболеваний и укрепление здоровья. 2006;9(4):33-37.

7. Каюмова М.М., Акимов А.М., Бессонова М.И. и др. Ассоциации стресса в семье, параметров отношения к здоровью и его самооценка у работающих экспедиционно-вахтовым методом в Арктике. Профилактическая медицина. 2023;26(10):49-54.

8. Масленникова Г.Я., Оганов Р.Г. Выбор оптимальных подходов к профилактике неинфекционных заболеваний в рамках международного сотрудничества. Кардиоваскулярная терапия и профилактика. 2018; 17(1):4-9.

9. Оганов Р.Г., Масленникова Г.Я. Демографические тенденции в Российской Федерации: вклад болезней системы кровообращения. Международный журнал сердца и сосудистых заболеваний. 2013;1(1):4-9.

10. Погосова Н.В., Бойцов С.А., Оганов Р.Г. и др. Клинико-эпидемиологическая программа изучения психосоциальных факторов риска в кардиологической практике у больных артериальной гипертензией и ишемической болезнью сердца (КОМЕТА): первые результаты российского многоцентрового исследования. Кардиология. 2018;58(9):47-58.

11. Федеральная служба государственной статистики. Информационно-аналитические материалы. Численность и миграция населения Российской Федерации. Ссылка активна на 06.02.25.

12. Curry SJ, Krist AH, Owens DK, et al. US Preventive Services Task Force. Risk Assessment for Cardiovascular Disease with Nontraditional Risk Factors: US Preventive Services Task Force Recommendation Statement. JAMA. 2018;320(3):272-280. <https://doi.org/10.1001/jama.2018.8359>.

13. Tunstall-Pedoe H, Kuulasmaa K, Mahonen M, et al. Contribution of trends in survival and coronary-event rates to changes in coronary heart disease mortality: 10-year results from 37 WHO MONICA project populations. The Lancet. 1999;353:1547-57.

14. World report on the health of refugees and migrants: summary. Geneva: World Health Organization; 2022. Accessed November 27,2024. <https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/360466/9789240054868-rus.pdf>.

15. Yao B-C, Meng L-B, Hao M-L, et al. Chronic stress: a critical risk factor for atherosclerosis. Journal of International Medical Research. 2019;47(4): 1429-1440. <https://doi.org/10.1177/0300060519826820>